



NEYROLINGVISTIKA FANINING TILSHUNOSLIKDAGI BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

Erkin tadqiqotchi: Xoliyorova Ch.D

Annotatsiya: Neyrolingvistika zamonaviy tilshunoslikning bir sohasi hisoblanib, uning tarixi, ahamiyati va vazifalari haqida olimlarning fikriga tayangan holda o'rganish olib borildi. Ushbu yangi soha o'z o'rnida tilshunoslikdagi qaysi sohalar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rib chiqildi va izoh berildi.

Annotation: Neurolinguistics is considered a field of modern linguistics and its history, peculiarities and tasks have been studied based on the opinions of scientists who worked on this matter. The fields in linguistics which are closely connected with this new field are learned.

Kalit so'zlar: Neyrolingvistika, tilshunoslik, psixolingvistika, fonetika, fonologiya, morfologiya, sintaksis.

Key words: neurolinguistics, linguistics, psycholinguistics, phonetics, phonology, morphology, syntactics.

Neyrolingvistika nutq bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar; nutqni ishlab chiqarish va uni idrok etish mexanizmlarini boshqaradigan asab tizimlarining ishlash jarayonlarini o'rganuvchi tilshunoslikning zamonaviy sohasidir. Ushbu soha nevrologiya, tilshunoslik, psixologiya va kognitiv fanlar bilan chambarchas bog'liq. Inson nutqining paydo bo'lishini va uning aynan nimani nazarda tutishini, maqsadini amaliy tajribalarini ilmiy nazariy asoslarini o'rganib chiqish aynan shu fanlar kesimida tahlil qilinadi.

Neyrolingvistikaning tarixiga nazar soladigan bo'lsak, u 20-asrda paydo bolgan bo'lishiga qaramay, ancha qadimiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Hattoki, neyrolingvistik terminlarga yozilgan sharhlar ham antik davrga borib taqaladi. "Neyrolingvistika" atamasi 1940-yillarning oxiri va 1950 yillarda paydo bo'lgan, bu fandagi muommolar va ularning kelib chiqish sabablari esa qadimgi davrdan mavjud



bo'lgan. Edit Kruell Trager, Anri Xekan va Aleksandr Luriya kabi olimlar bu fanning yuzaga kelishining asosiy sababchilari sifatida qaraladi. Xususan, Luriyaning 1976-yilda chop etilgan "Neyrolingvistikaning asosiy muammolari" nomli kitobida "neyrolingvistika" atamasi ilk bor qo'llanilgan deb e'tirof etiladi. Shuningdek, Garri Uitaker 1970-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida neyrolingvistikani ommalashishisha sababchi bo'ldi va u "Brain and Language" ("Miya va til") jurnalini 1974-yilda chop eta boshlagan. Bu ma'lumotlarga tayangan holda aytish mumkinki, neyrolingvistikaga 20-asrning 70-yillarida zamonaviy fan sifatida tan olingan. Shuni alohida takidlab o'tish joizki, *nevro*, *lingvistik* va *dasturlash* kabi uch komponentni o'z ichiga olgan "neyrolingvistik dasturlash" amerikalik tilshunos va dasturchi Jon Grinder⁴⁴⁴[2:184] va psixolog Richard Bandler tomonidan ishlab chiqildi. U inson faoliyati jihatlarining nevrologik, lingvistik va operatsion-algoritmik jihatdan o'zaro bog'liqlik va ekvivalentligini o'zaro ta'sirni o'rganishga yo'naltirilgan soha.

Bugungi kunga kelib bu fandagi muommolar olimlar tomonidan qiziqish bilan o'rganilmoqda va uning sabab va yechimlari amaliyotga tadbiq etilgan holda ilmiy nazariy asoslari ishlab chiqilmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikning bu sohasini chuqurroq o'rganishda tadqiqotchilar turli xil tajribalar va ularga asoslangan bir qator nazariyalar shuningdek teoremlarni yaratishmoqda. Fanning asosiy maqsadi ya'ni nutqni ishlab chiqarish va bu jarayondagi o'zgarishlarni tadqiq etishdan kelib chiqib takidlash mumkinki, neyrolingvistikada asosan ko'p ishlar psixolingvistika va tilshunoslikdagi modellardan iborat bo'ladi. Umuman olganda, neyrolingvistika avvalo psixolingvistika sohasi bilan chambarchas bog'liq va tilning aynan kognitiv mexanizmlarini o'rganishda u psixologiyaning an'anaviy experimental usullarini qo'llaydi. Neyrolingvistika va psixolingvistika nazariyalari ilmiy jihatdan bir birini to'ldiradi^[3:56], ya'ni, psixolingvistika orqali nazariyalarni o'rganadigan bo'lsak, neyrolingvistika orqali uni amaliyot jarayonini kuzatishimiz mumkin. Masalan, inson ma'lum bir muddat nutqini yo'qotib qo'yishi neyrolingvistik jarayon sifatida qaralsa, uning nima sababdan (qattiq qo'rquv yoki hayajondan) kelib chiqqan sababini psixolingvistika nazariyalari orqali o'rganib chiqish mumkin.



Neyrolingvistika o'z nomidan kelib chiqib tilshunoslik bilan ham uzviy bog'liq ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Inson nutqida kechayotgan jarayon bir vaqtning o'zida tilshunoslik, nevrologiya va psixologiya sohalarini qamrab oladi.

Umuman olganda, tilning tuzilishini va til ma'lumotlari qanday tashkil etilishini aniqlashtirish uchun nazariy tilshunoslar modellar taklif qilishadi, psixologlar til ma'lumotlarining ongda qanday qayta ishlanishini oydinlashtirish ustida ishlashsa, nevrologlar esa biologik tuzilmalar (populatsiyalar va tarmoqlar) qanday ekanligini aniqlash uchun miya faoliyatini tahlil qiladilar.

Shuningdek, neyrolingvistika tilshunoslikning asosiy va kichik sohaları bilan ham bog'liqligini ko'rishimiz mumkin:

1. *Fonetika*- tilshunoslikning nutq tovushlarini o'rganadigan bo'limi hisoblanib, neyrolingvistika sohasi bilan birgalikda miyada nutq tovushlarini akustik signal va fon shovqinidan qanday ajratib olishni o'rganadi.
2. *Fonologiya*- tilshunoslikda tovushlarni tilda qanday paydo bo'lishini o'rgansa, neyrolingvistika sohasi bilan muayyan tilning fonologik tizimi miyyada qanday ifodalanayotganini tadqiq etadi.
3. *Morfologiya*- tilshunoslikning so'z turkumlari va ularning ishlatilish o'rinlarini o'rganuvchi soha bo'lib, u neyrolingvistika sohasida miyada so'zlarni qanday saqlash va ularni nutqda o'z vaqtida va o'rnida ishlatilishini o'rganadi.
4. *Sintaksis*-tilshunoslikning so'z birikmalari va gap qurilishini o'rganadigan bo'limi hisoblanib, neyrolingvistika sohasi bilan birgalikda miya qanday qilib so'zlarni tarkibiy qismlarga va jummalarga birlashtirishi, jummalarni birlashtirishda strukturaviy va semantik ma'lumotlar qanday foydalanilishini ko'rib chiqadi.

Yuqorida keltirilgan misollarda neyrolingvistika fani tilshunoslik sohasidagi ba'zi bo'limlar bilan kesishgani va nima sababdan bu sohalarga aloqadorligini tushunish qiyin emas. Yani inson nutqidan chiqayotgan har bir tovush, so'z va gaplar miyyada avtomatik tarzda tartibga solinadi va tinglovchilarga aniq maqsad bilan yetib boradi. Agar bu jarayonda miyyadagi tilga bog'liq biror bir nerv tizimida



shikastlanish yuzaga kelgan bo'lsa, unda neyrolingvistik muommo yani so'zlar yoki gaplar buzilishi kuzatilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Белянин, В. П. (2000). Основы психолингвистической диагностики. М.:Тривола
2. Гриндер Д. Вводный курс НЛП тренинга. М.: Флинта, 2000.
3. Mulligan, K. (Ed.). (2012). Mind, meaning and metaphysics: the philosophy and theory of language of Anton Marty (Vol.3). Springer Science & Business Media.